


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**SPORT VA CHAQRIQQACHA HARBIY TA'LIM FAKULTETI**  
**"TASVIRIY SAN'AT"**  
**kafedrasi**

## **CHIZMA GEOMETRIYA**

### **TO'PLAMI**



**Chirchiq 2020**

## **1. FAN BO‘YICHA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH**

Chizma geometriya fani pedagogika yo‘nalishida ta’lim oluvchi barcha ta’lim yo‘nalishlarining kunduzgi bakalavriat ta’lim standartlariga kiritilgan bo‘lib, unda Chizma geometriyaning predmeti, Chizma geometriya fanining qisqacha rivojlanish tarixi va shu kabi mavzular keng yoritilgan.

Auditoriyada professor o‘qituvchilar tomonidan ajratilgan ma’ruza soatlarida yo‘naltiruvchi ma’ruzalar shaklida o‘tiladi va qolgan fan bo‘yicha o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan mavzular mustaqil ta’lim sifatida talabalar tomonidan auditoriyadan tashqarida o‘zlashtiriladi, o‘zlashtirish darajasi oraliq nazorat sifatida fan o‘qituvchisi tomonidan belgilangan tartibda baholanadi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalarning boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismlarini o‘zlashtirish;
- o‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash;
- o‘z –o‘zini baholash orqali bilimni uzlusiz nazorat qilish;
- fanning boblari va mavzulari ustida ishslash;
- fanlar bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘srimcha adabiyotlar ustida ishslash hamda ularni o‘rganish;
- yangi pedagogik texnologiyalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabalarning ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol o‘qitish metodidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distantion ) ta’lim.

Talabalar uchun mo‘ljallangan mustaqil ta’lim mavzulari quyida berilgan (1-jadval).

## **2. MUSTAQIL ISH MAVZULARI**

**1-jadval**

<b>Nº</b>	<b>Mustaqil ta’lim mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
<b>II - semestr</b>		
1	Tekislik va fazoda joylashgan nuqta, to‘g‘ri chiziq va tekis shakkarni parametrlash.	2
2	Markaziy va parallel proyeksiyalash usullarining xossalarni o‘xshash hamda farqli jihatlarini tahlili.	2
3	5, 6, 7, 8 oktantlarda joylashgan nuqtalarning proyeksiyalarini yasashga mashq.	1
4	Nuqtaning proyeksiyalar tekisliklaridan uzoqligini aniqlashga oid masalalar yechish.	2
5	To‘g‘ri burchakning proyeksiyasini o‘ziga xos jihatlari.	1
6	Raqobatlashuvchi nuqtalarni fazodagi vaziyatlarini tekshirish.	2
7	Bissektor tekisligi xususiyatlari.	2
8	Epyurda to‘g‘ri chiziqning gorizontal, frontal va profil izlarini aniqlash.	2
9	Tekislikning maxsus va eng katta og‘ma chiziqlaridan samarali foydalanish holatlari.	2
10	Tekislikning izlarini aniqlashda eng qulay holatdan foydalanish imkoniyatlari.	2
11	To‘g‘ri chiziqni tekislik bilan kesishgan nuqtasini aniqlashda raqobatlashuvchi to‘g‘ri chiziqdan	2

	foydalaniш.	
12	Tekisliklarning o'zaro kesishish chizig'ini aniqlashda yordamchi kesuvchi tekislikning ahamiyati.	2
13	Ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchakni aniqlash. Ikki tekislik orasidagi burchakni aniqlash. To'g'ri chiziq va tekislik orasidagi burchakni aniqlash.	2
<b>Semestr bo'yicha</b>		<b>24</b>

Nº	<b>Ma'ruza mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
<b>II-semestr</b>		
1	Kirish. Tasvir yasash usullari. Evklid fazosini xosmas elementlar bilan to'ldirish. Markaziy va parallel proyeksiyalash usullarining xossalari. To'g'ri burchakli proyeksiyalash.	2
2	Fazoni chorak va oktantlarga bo'lish. Nuqtaning chorak va oktantlardagi proyeksiyalari. To'g'ri chiziqning ortogonal proyeksiyalari. To'g'ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo'lish.	2
3	To'g'ri chiziqning izlari. To'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilish.	2
4	Tekislikning chizmada berilishi. Tekislikning izlarini yasash. Umumiy va xususiy vaziyatdagi tekisliklar.	2
<b>Semestr bo'yicha</b>		<b>8</b>
Nº	<b>Amaliy mashg'ulotlar mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
<b>II-semestr</b>		
1	Nuqtaning chorak va oktantlardagi proyeksiyalarini yasash.	2
2	Umumiy va xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlarning oktantlardagi proyeksiyalari. To'g'ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo'lish.	4
3	To'g'ri chiziqning izlarini yasash. Koordinatalari orqali berilgan to'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilish.	2
4	Ikki proyeksiysi orqali berilgan to'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilish.	2
5	Tekislikning izlarini yasash. Xususiy vaziyatdagi tekisliklarning xususiyatlari.	4
6	Tekislikning bosh chiziqlarini o'tkazish. Nuqta va to'g'ri chiziqlarni tekislikka tegishlilagini aniqlash. Tekislikni proyeksiyalari tekisligi bilan hosil qilgan burchagini aniqlash.	4
7	To'g'ri chiziq orqali tekislik o'tkazish. Ikki tekislikning o'zaro kesishgan chizig'ini aniqlash. Berilgan tekislikka parallel to'g'ri chiziq va tekislik o'tkazish.	4
8	To'g'ri chiziqni tekislik bilan kesishgan nuqtasini aniqlash. Nuqtadan tekislikkacha bo'lgan eng qisqa masofani aniqlash.	4
9	Tekislikka parallel va perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqlar o'tkazish. O'zaro parallel va perpendikulyar bo'lgan tekisliklar o'tkazish.	4
<b>Semestr bo'yicha</b>		<b>30</b>

## **CHIZMA GEOMETRIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI:**

1. Yuqorida (1-jadvalda) keltirilgan mavzularni adabiyotlardan foydalangan holda konspektlashtirish va o'zlashirish.
2. Ushbu mavzular asosida mustaqil ish tayyorlash. Mustaqil ishga taqdimot tayyorlab himoya qilish.
3. Mustaqil ta'lif mavzulari bo'yicha 10 ta test savollarini tayyorlash (kaliti bilan), tayyorlangan testlarning 50% murakkab test bo'lishi lozim. Test namunasi quyida namunada keltirilgan.

**Test tayyorlash bo'yicha namuna:**

1. **Kesuvchi tekislikning yo'nalishini ko'rsatish uchun kesimning boshi va oxiri qanday chiziq bilan chiziladi?**  
A. Uzuq chiziq

B. Asosiy tutash chiziq

C. Shtrix chiziq

D. Ingichka tutash chiziq

**2. Yumshoq qalamlar qanday harflar bilan belgilanadi?**

A. TM yoki HB

B. 2T yoki 2H

C. Konstruktor

D. M yoki B

**3. Uzuq chuzuq yo‘g‘onligi nechaga teng?**

A. s/3...s/2

B. s=0.6s

C. s-1,5s

D. s

**4. Uzuq chiziqning uzunligi nechaga teng?**

A. 3-5 mm

B. 8-20 mm

C. 5-30 mm

D. 2-8 mm

**5. Asosiy yo‘g‘on tutash chiziq chizmada qayerda qo‘llaniladi?**

A. Buyumning ko‘rinarli kontur chiziqlarini chizishda

B. Buyumning ko‘rinmas kontur chiziqlarini chizishda

C. Buyumning o‘q va markaziy chiziqlarini chizishda

D. Kesuvchi tekislik o‘rnini ko‘rsatishda

**6. Kesishuvchi to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro perpendikulyar bo‘lsa, ular orasidagi burchak necha gradusga teng bo‘ladi?**

A. 45<sup>0</sup>

B. 90<sup>0</sup>

C. 30<sup>0</sup>

D. 60<sup>0</sup>

**7. Chizmada o‘lcham chiziqlari orasidagi masofa nechaga teng?**

A. 2-3 mm

B. 5-30 mm

C. 6-10 mm

D. 8-30 mm

**8. Inginchka tutash to‘lqinsimon chiziq chizmada qayerda qo‘llaniladi?**

A. Kesuvchi tekislik o‘rnini ko‘rsatishda

B. Buyumning ko‘rinmas kontur chiziqlarini chizishda

C. Buyumning o‘q va markaziy chiziqlarini chizishda

D. Mahalliy qirqimda, tasvirni uzib ko‘rsatishda

<b>Savol:</b>	1	2	3	4	5	6	7	8
<b>Javob:</b>	A	D	C	B	A	B	C	D

**4. Mustqil ish tayyorlangan mavzu asosida yangi ped texnologiyalardan foydalangan holda dars ishlanmasini tayyorlash.**

**5.** Mustaqil ish, taqdimot, test va dars ishlanmasining elektron shaklini diskga yozish, qog'oz variantda chop etish va barchasini birgalikda tiktirish (pereplyot qilish).

**6.** Nazorat savollari va grafik ishlar asosida oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorlarlik ko'rish.

## **MAXSUS SIRTQI BO'LIM TALABALARI UCHUN "CHIZMA GEOMETRIYA" FANIDAN SESSIYA ORALIG'I NAZORAT ISHI TOPSHIRIQLARI**

### **FAN: CHIZMA GEOMETRIYA**

**Nazorat ishi topshiriqlarining asosiy maqsadi:** Chizma geometriya muhandislik grafikasi fanlarining asosi sifatida, uning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, proeksiyalash usullarining asosiy qonun-qoidalari, geometrik shakllarning ortogonal va markaziy proeksiyalarni bajarish qoidalari to'g'risida to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish, nuqta, to'g'ri chiziq, tekislikning ortogonal proeksiyalarini yasash, geometrik shakllar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni klassik va epyurni qayta tuzish usullarida aniqlash ishlashni o'rganish.

#### **Nazariy ma'lumotlar**

Talabalar «Chizma geometriya» fani bo'yicha olgan bilimlarining yaxlit mujassamlashgan modelini shakllantirish, ularni chuqurlashtirish amalda sinab ko'rish maqsadida « Chizma geometriya» fani bo'yicha sessiya oralig'i nazorat ishi topshiriqlari taqdim etiladi. Talabalarning « Chizma geometriya» fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash va sinash, ularni kelgusi o'qituvchilik faoliyatida kerak bo'lgan asosiy proeksiyalash usullarining asosiy qonun-qoidalari, ularning xossalari, oddiy geometrik shakllarning ortogonal proeksiyalarini hosil qilish, ular orasidagi pozitsion va metrik masalalarni echish, pozitsion va metrik munosabatlarni tekshirishda umumiyligi va xususiy usullarni amaliy tatbiq qila olish bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish mazkur tayyorlangan sessiya oralig'i nazorat ishi topshiriqlari to'plamida o'z aksini topgan.

Talabalar « Chizma geometriya» fanidan sessiya oralig'i nazorat ishi topshiriqlarini bajarish jarayonida quyidagi nazariy bilimlar bilan tanishib, ularni o'rganib chiqishadi va amaliy ishlarni mustaqil bajarishni o'rganishadi.

#### **Chizma geometriya muhandislik grafikasining asosi sifatida.**

“Chizma geometriya” fani fazoviy jismlarning geometrik tasavvuridan uning planimetrik tasviri (tekis chizmasi)ga o'tish va fazoviy jism elementlarining o'zaro munosabatlarini uning planimetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko'chirib o'tish qonuniyatlarini tadqiq qilish jarayonlariga uslubiy yondashuvi hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi, konstruksiyalash, loyihalash ishlarida inson miyasidagi g'oyalarni hamma tushuna oladigan chizma tilida oq qog'ozga tushira

olish imkoniyatlari mavjudligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Chizma geometriya tekis tasvirlar (chizmalar) hosil qilish va ularni amalda qo'llash to'g'risidagi fandir.

Chizma geometriya tub mohiyati bilan matematik fan – proyektiv geometriyaning o'ziga xos bir shahobchasi bo'lib, o'zining proyeksiyalash metodiga asoslanganligi va xususiy usullarga ega bo'lganligi bilan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi va amaliy ahamiyati jihatidan umummuhandislik fanlari safidan o'rinni oldi. Shuning uchun ham chizma geometriya fani turli yo'nalishdagi mutaxassislar uchun umumnazariy hisoblanadi. Ya'ni bo'lajak oily ma'lumotli mutaxassis har qanday buyumning ishchi chizmasini tuzish va uni o'qiy olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday mutaxassislar jamiyat va turmush tarzining rivojlanishiga va havfsizligiga mas'ul shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, malakali rassom, arxitektor, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari hamda restavratorlarni tayyorlashda chizma geometriya (perspektiva) asosiy fanlardan biri vazifasini o'taydi.

Chizma geometriya fanini o'qitishda quyidagi maqsad ko'zda tutiladi:

Birinchidan, fazoviy shakllarni biror tekislik yoki sirtda tasvirlash usullarini tadqiqot qilish.

Ikkinchidan, fazoviy va tekis shakllarning parallel proyeksiyalash usuli yordamida tekislikda hosil qilingan tasvirlari bo'yicha ularning geometrik xossalarni tadqiqot qilish.

Uchinchidan, tekis va fazoviy shakllarning orasidagi pozitsiyaviy va metrik munosabatlarni ularning hosil qilingan tekis tasvirlari orqali aniqlash usullarini tekshirish.

To'rtinchidan, talabalarda fazoviy tasavvur va muhandislik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltiradigan misol va masalalarni tadqiqot qilish.

Qayd qilingan barcha maqsadlarda tasvir tekisligi va uch o'lchamli fazo orasidagi bog'liklik qonuniyatlarini tadqiqot qilinadi va o'rganiladi.

Chizma geometriya fanini o'qitishning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fazoviy jismlarning geometrik tasavvuridan uning planimetrik tasviri (tekis chizmasi)ga o'tish va fazoviy jism elementlarining o'zaro munosabatlarini uning planimetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko'chirib o'tish qonuniyatlarini tadqiq qilish jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- proyeksiyalash usullarining qonuniyatlarini, fazoviy geometrik va tabiiy jismlarni tekislik yoki sirt yuzasida tasvirlashning nazariy asoslari, markaziy va parallel proyeksiyalash usullarida pozitsion va metrik masalalarni yechishning nazariy asoslari, perspektiv tasvir qurish usullari to'g'risidagi **bilimga**;

- uch o'lchamli fazoda joylashgan buyumlarning ikki o'lchamli tekislik yoki sirt ustida tasvirini yashashni, proyeksiyalash usullarida geometrik shakllar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni tekshirishni, obyektlarning perspektiv tasvirlarini qurish **ko'nikmasiga**;

- chizma geometriya nazariyasi va metodlaridan turli geometrik, texnikaviy masalalarni yechishda unumli usullarni tanlay olish va uni amalda qo'llash,

avvaldan berilgan shartlarga asosan sodda egri chiziq va sirtlarni loyihalash, perspektiv tasvirlarni tahlil qilish ***malakasiga ega bo'lishi lozim.***

## **CHIZMA GEOMETRIYADAN SESSIYA ORALIG'I VAZIFALARI MAZMUNI VA ULARNI BAJARISHGA OID NAMUNALAR HAMDA TALABALAR UCHUN INDIVIDUAL VARIANTLAR**

### **Chizma geometriyadan sessiya oralig'i vazifalari mazmuni**

#### ***1-topshiriq. To'g'ri chiziq kesmasiga oid masala:***

- a) koordinatalari berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to'la tahlil qilinsin.
- b) ikki proyeksiyasi berilgan PK to'g'ri chiziq kesmasining yetishmovchi proyeksiyasi aniqlansin, tahlil qilinsin va fazoviy holati qurilsin.

#### ***2-topshiriq. Umumiy usulda pozitsion va metrik masalalar echish:***

- a) ABD uchburchak tekisligining frontal va gorizontal izlari aniqlansin.
- b) S nuqtadan ABD uchburchak tekisligigacha bo'lган eng qisqa masofa aniqlansin.
- c) ABD uchburchak tekisligidan 30 mm uzoqlikda unga parallel tekislik o'tkazilsin.

#### ***3-topshiriq. Epyurni qayta tuzish usullarida pozitsion va metrik masalalar echish:***

- a) parallel ko'chirish usulida E nuqtadan ABD uchburchak tekisligigacha bo'lган eng qisqa masofa aniqlansin.
- b) aylantirish usulida ABD uchburchak tekisligi yuzasining haqiqiy kattaligi aniqlansin.
- c) proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usulida (ABD va ABE) ikki yoqli tekislik orasidagi burchak aniqlansin.

#### ***4-topshiriq. Chizma geometriya fani bo'yicha nazariy savollar:***

Fan mazmuniga mos savollarga yozma tarzda javob yozilsin.

### **Chizma geometriyadan sessiya oralig'i vazifalarini bajarishga oid namunalar va talabalar uchun individual variantlar**

#### ***1-topshiriq. To'g'ri chiziq kesmasiga oid masalalar***

**1-a) masala.** Koordinatalari berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to'la tahlil qilinsin.

**Masala echimi.** Demak fazodagi  $AB$  to‘g‘ri chiziq kesma uchlarining  $A$  (61, 41, 15) va  $B$  (23, 13, 60) nuqtalar koordinatalari berilgan bo‘lsin (1-rasm).  $A$  va  $B$  nuqtalarning  $Ox$ ,  $Oy$ ,  $Oz$  o‘qlardagi koordinatalari musbat ishorali bo‘lganligi uchun dastlab, I oktantning fazoviy holati va epyuri<sup>1</sup> chiziladi (1-rasm). I oktantning fazoviy holati va epyuridagi koordinata o‘qlariga  $A$  nuqtaning berilgan koordinatasi bo‘yicha mos ravishda 61 mm ( $A_x$ ), 41 mm ( $A_y$ ), 15 mm ( $A_z$ ) masofalari o‘lchab qo‘yiladi hamda  $A_x$ ,  $A_y$ ,  $A_z$  nuqtalar aniqlanadi.  $A_x$  nuqtadan  $y$  va  $z$  o‘qlariga,  $A_y$  nuqtadan  $Ox$  va  $Oz$  o‘qlariga,  $A_z$  nuqtadan  $Ox$  va  $Oy$  o‘qlariga parallel bog‘lovchi to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. Bu bog‘lovchi chiziqlar mos ravishda kesishib,  $A$  nuqtaning gorizontal ( $A'$ ), frontal ( $A''$ ) va profil ( $A'''$ ) proyeksiyalarini beradi.

$A$  nuqtaning fazodagi o‘rnini aniqlash uchun  $A'$  dan  $Oz$  ga,  $A''$  dan  $Oy$  ga,  $A'''$  dan  $Ox$  ga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. O‘tkazilgan chiziqlar o‘zaro yagona nuqtada kesishib, fazodagi  $A$  nuqtaning o‘rnini aniqlaydi.

$B$  nuqtaning  $B'$  (gorizontal),  $B''$  (frontal),  $B'''$  (profil) proyeksiyalarini, fazodagi o‘rni  $B$  nuqta huddi  $A$  nuqtaniki kabi berilgan koordinatasi asosida aniqlanadi.

Fazodagi  $A$  va  $B$  nuqtalar tutashtirilib,  $AB$  kesmaning fazodagi o‘rni hosil qilinadi (qizil rangda).  $A$  va  $B$  nuqtalarning aniqlangan bir nomli proyeksiyalar, ya’ni  $A'$  va  $B'$ ,  $A''$  va  $B''$ ,  $A'''$  va  $B'''$  nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi (ko‘k rangda). Natijada  $A$ ,  $B'$ ,  $A''B''$  va  $A'''B'''$  kesmalar hosil bo‘lib, ular fazodagi  $AB$  kesmaning mos ravishda gorizontal, frontal va profil proyeksiyalarini hisoblanadi.

Endi  $AB$  kesma tahlil qilinadi. *To‘g‘ri chiziq kesmasining to‘liq tahlili deganda uning haqiqiy uzunligini, proyeksiyalar tekisliklari bilan hosil qilgan burchaklarini va izlarini aniqlash tushuniladi.* Bu jarayon epyurda bajarilib, unda  $AB$  kesmani tahlil qilish uchun kesma uchlarining gorizontal, frontal, profil proyeksiyalar tekisliklaridan uzoqliklarining algebraik ayrimasi  $\Delta z$  ( $\Delta z = B_z - A_z = 60 - 15 = 45$ ),  $\Delta y$  ( $\Delta y = A_y - B_y = 41 - 13 = 28$ ),  $\Delta x$  ( $\Delta x = A_x - B_x = 61 - 23 = 38$ ) masofalar belgilanadi. Kesmaning har bir proyeksiyasini biror uchi ( $A'$ ,  $A''$ ,  $A'''$  yoki  $B'$ ,  $B''$ ,  $B'''$ ) dan unga perpendikular to‘g‘ri chiziqlar chiqariladi va bu chiziqlar mos ravishda  $\Delta z$ ,  $\Delta y$  va  $\Delta x$  masofalar o‘lchab qo‘yiladi. Natijada  $A_0$  yoki  $B_0$  nuqta (kesmaning qaysi uchidan unga perpendikular chiqarilsa shu nuqta nomi bilan unga nolli indeks qo‘yiladi) belgilanadi.

Belgilangan  $A_0$  yoki  $B_0$  nuqta kesmaning ikkinchi uchi ( $B'$ ,  $B''$ ,  $B'''$  yoki  $A'$ ,  $A''$ ,  $A'''$ ) bilan tutashtiriladi. Bu tutashtirishdan hosil bo‘lgan  $B'A_0$ ,  $A''B_0$ ,  $A'''B_0$  kesmalar fazodagi  $AB$  kesmaning  $H$ ,  $V$ ,  $W$  proyeksiyalar tekisliklarida aniqlangan haqiqiy uzunligi bo‘ladi va ular o‘zaro teng bo‘lishi shart (qizil rangda).

$AB$  kesmaning proyeksiyalarini va haqiqiy uzunliklari orasidagi  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  burchaklar uning proyeksiyalar tekisliklari ( $H$ ,  $V$  va  $W$ ) bilan hosil qilgan burchaklarining haqiqiy kattaligi hisoblanadi.


Chizmaning fazoviy holatida proyeksiyalar tekisliklari shartli ravishda chegaralanadi.

Ish so‘ngida chizma taxt qilinadi, ya’ni chizma qog‘oz hoshiyasi, asosiy yozuv o‘rni chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi (1-rasm).

---

<sup>1</sup> Epyur deb o‘zaro perpendikular bo‘lgan proyeksiyalar tekisliklarining ( $H$ ,  $V$ ,  $W$ ) koordinata o‘qlari ( $x$ ,  $y$ ,  $z$ ) atrofida bitta tekislik holatiga kelguncha aylantirilgan vaziyatiga aytildi. Bunda  $V$  tekislik qo‘zg‘almaydi.

1-a) masalani bajarish uchun variantlar 2-jadvaldan olinadi.



Kesmani tahlil qilish			Nº
Chizdi	F.I.O	imzo	Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi
Tekshirdi	F.I.O	imzo	
A-qildi	F.I.O	imzo	kafedrasi

	X	Y	Z
A	61	41	15
B	23	13	60

**1-rasm**

**2-jadval**

Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar		
		X	Y	Z			X	Y	Z			X	Y	Z
1	A	50	80	0	11	A	50	90	0	21	A	55	70	45
	B	0	40	80		B	100	0	25		B	80	0	10
	D	100	0	-25		D	80	-70	35		D	100	50	-50
	C	40	5	5		C	0	30	40		C	0	50	-30
2	A	25	70	80	12	A	50	40	0	22	A	45	60	20
	B	0	30	15		B	0	40	80		B	0	10	90
	D	75	-20	35		D	50	-80	0		D	10	-15	-30
	C	10	30	70		C	90	-40	-45		C	80	-50	-15
3	A	80	0	40	13	A	80	85	60	23	A	20	85	0
	B	80	45	0		B	0	40	60		B	55	10	80
	D	0	40	-60		D	90	50	-10		D	10	-15	30
	C	75	10	15		C	60	60	-70		C	60	-40	60
4	A	100	0	60	14	A	70	0	40	24	A	20	65	0
	B	60	60	5		B	5	35	5		B	100	25	45
	D	15	-40	-55		D	40	20	0		D	70	-30	10
	C	0	35	-20		C	90	-50	-45		C	0	40	60
5	A	90	80	20	15	A	60	80	45	25	A	70	65	70
	B	70	0	60		B	5	15	0		B	100	35	20
	D	0	-60	-50		D	70	-60	65		D	5	-5	-90
	C	60	-10	-20		C	20	-60	0		C	60	-80	0
6	A	100	10	20	16	A	75	40	85	26	A	65	55	45
	B	40	70	0		B	0	70	0		B	65	15	30
	D	35	-10	70		D	15	-80	-70		D	60	0	-80
	C	70	-45	10		C	60	-30	-40		C	80	50	-15
7	A	0	65	40	17	A	90	0	70	27	A	45	10	70
	B	65	0	5		B	0	60	10		B	70	0	10
	D	40	-30	-40		D	15	50	15		D	70	60	30
	C	100	-60	20		C	80	-20	60		C	0	40	-60
8	A	100	70	85	18	A	80	10	55	28	A	80	20	55
	B	70	0	45		B	40	60	0		B	20	40	10
	D	55	40	0		D	40	-30	15		D	40	30	35
	C	80	-35	20		C	100	-30	50		C	90	-65	-25
9	A	35	60	0	19	A	0	75	40	29	A	100	45	60
	B	0	10	90		B	70	35	40		B	45	45	15
	D	80	-40	-10		D	80	-50	-20		D	40	-30	40
	C	10	-10	30		C	30	-5	-60		C	85	-20	-25
10	A	20	85	0	20	A	5	60	45	30	A	20	20	50
	B	55	10	80		B	80	0	0		B	65	45	0
	D	95	-55	45		D	75	30	20		D	55	0	-10
	C	60	0	10		C	0	-40	70		C	80	-60	-50

**1-b) masala.** Iikki proyeksiyasi berilgan  $PK$  to‘g‘ri chiziq kesmasining yetishmovchi proyeksiyasi aniqlansin, tahlil qilinsin va fazoviy holati qurilsin.

**Masala echimi.** Bu masalada kesma uchlari I oktantda joylashganligi uchun variantning berilgan epyuri va fazoviy holati, ya’ni koordinata o‘qlari chiziladi (2-rasm). Kesmaning  $P$  uchi  $H$  da,  $K$  uchi esa fazoda joylashgan.  $PK$  kesmaning gorizontal ( $P'K'$ ) va frontal ( $P''K''$ ) proyeksiyalari asosida uning profil ( $P'''K'''$ ) proyeksiyasi aniqlanadi. Buning uchun epyurda  $K'$  va  $K''$  nuqtalardan  $Ox$  o‘qiga parallel chiziqlar o‘tkazilib, ularni  $Oy$  va  $Oz$  o‘qlar bilan kesishgan  $K_y$  va  $K_z$  nuqtalari aniqlanadi. Epyurda  $O$  koordinata boshidan  $OK_y$  radiusda aylana yoyi chizib  $W$  dagi  $Oy$  o‘qida  $K_y$  belgilanadi va undan  $Oz$  ga,  $K_z$  dan esa  $Oy$  o‘qiga parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. Bu to‘g‘ri chiziqlar kesishib, fazodagi  $K$  nuqtaning etishmovchi  $K'''$  profil proyeksiyasini aniqlaydi.  $P$  nuqtaning etishmovchi proyeksiyasi ham shu tartibda aniqlanadi. Kesmaning  $P$  uchi  $H$  ga tegishli bo‘lganligi uchun etishmovchi  $P'''$  proyeksiya  $Oy$  o‘qida bo‘ladi.


Endi kesma uchlarning fazoviy holatini qurish uchun epyurdagi kesma uchlari koordinatalari o‘lchab olinadi va fazoviy holatdagi koordinata o‘qlariga mos ravishda o‘lchab qo‘yiladi. Qolgan jarayonlar 1-a) masalaning 1-bosqichidagi kabi amalga oshiriladi.

Epyur va fazoviy holatlarda aniqlangan  $PK$  kesma uchlarning bir nomli proyeksiyalari tutashtirilib (ko‘k rangda), gorizontal -  $P'K'$ , frontal -  $P''K''$ , profil -  $P'''K'''$  proyeksiyalari hosil qilinadi. Fazodagi  $P$  va  $K$  nuqtalar tutashtirilib (qizil rangda), kesmaning  $PK$  fazoviy o‘rni chiziladi.

Endi 1-a) masalaning 3-bosqichidagi kabi jarayon, ya’ni  $PK$  kesmaning tahlili amalga oshiriladi.

Ish so‘ngida chizma taxt qilinadi, ya’ni chizma qog‘oz hoshiyasi, asosiy yozuv o‘rni chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi (2-rasm).

1-a) masalani bajarish uchun variantlar 3-jadvaldan olinadi.



Kesmani tahlil qilish

Kesmani tahlil qilish			Nº
Chizdi	F.I.O	imzo	sana
Tekshirdi	F.I.O	imzo	sana
Q-qildi	F.I.O	imzo	sana


Chizmachilik va uni  
o'qitish metodikasi  
kafedrasi

1:1  
guruhi

2-rasm

3-jadval

1	2	3	4
5	6	7	8
9	10	11	12
13	14	15	16



## **2-topshiriq. Umumiy usulda pozitsion va metrik masalalar echish**

**2-a) masala.** *ABD uchburchak orqali berilgan tekislikning frontal va gorizontal izlari aniqlansin (3-rasm).*

**Masala echimi.** Namuna chizmada *ABD* uchburchak tekisligining uchlarini koordinatalari  $A(84, 9, 37)$ ,  $B(19, 17, 51)$ ,  $D(57, 50, 13)$  tarzda berilgan. Dastlab, berigan koordinatalari bo'yicha *ABD* uchburchakning  $A'B'D'$  gorizontal va  $A''B''D''$  frontal proyeksiyalari chizib olinadi (3-rasm).

Keyin uchburchak tekisligini tashkil qiluvchi tomonlari  $AB$ ,  $BD$ ,  $DA$  to'g'ri chiziqlarning frontal va gorizontal izlarini aniqlash kerak bo'ladi. Masalan,  $AD$  chiziqning frontal izini aniqlash uchun  $A'C'$  kesma (to'g'ri chiziq)  $Ox$  o'qini kesguncha davom ettiriladi va  $1'_V$  nuqta aniqlanadi. Aniqlangan  $1'_V$  dan  $Ox$  o'qqa perpendikular qilib o'tkazilgan bog'lovchi chiziq  $A''D''$  chiziq davomini kesib,  $AD$  to'g'ri chiziqning  $1''_V$  frontal izini beradi.

Endi fazodagi  $AD$  chiziqning gorizontal izi aniqlanadi. Buning uchun  $A''C''$  kesma  $Ox$  o'qni kesguncha davom ettiriladi va  $2''_H$  nuqta aniqlanadi. Aniqlangan  $2''_H$  dan  $Ox$  ga perpendikular qilib o'tkazilgan bog'lovchi chiziq  $A'D'$  chiziq davomini kesib,  $AD$  to'g'ri chiziqning  $2'_H$  gorizontal izini beradi.


$BD(B'D', B''D'')$  to'g'ri chiziqning  $3_H(3'_H, 3''_H)$  frontal va  $4_H(4'_H, 4''_H)$  gorizontal izlari ham shu tartibda aniqlanadi.

$AD$  va  $BD$  to'g'ri chiziqlarning aniqlangan  $1''_V$  va  $3''_V$  frontal izlari tutashtirilsa fazodagi  $ABD$  ( $A'B'D'$ ,  $A''B''D''$ ) uchburchak orqali berilgan tekislikning  $P_V$  frontal izi hosil bo'ladi. Ushbu tekislikning  $P_H$  gorizontal izi  $AD$  va  $BD$  to'g'ri chiziqlarning aniqlangan gorizontal izlari  $2'_H$  va  $4'_H$  nuqtalarni tutashtirish orqali aniqlanadi.  $ABD(A'B'D', A''B''D'')$  uchburchak orqali berilgan tekislikning  $P_V$  frontal va  $P_H$  gorizontal izlarining davomi o'zarlo  $Ox$  o'qda kesishadi hamda bu nuqta  $P_x$  deb nomlanadi (namunadagi chizmada  $P_x$  nuqta ko'rsatilmagan).

Masalaning so'ngida chizma taxt qilinadi (3-rasm).

**Izoh:**  $ABD$  uchburchak tekisligining bosh chiziqlari  $h(h', h'')$  va  $f(f', f'')$  lar o'tkaziladi. Agar tekislikning  $P_V$  frontal va  $P_H$  gorizontal izlari o'tkazilgan bosh chiziqlarga mos ravishda parallel bo'lsa ( $P_V \parallel f'$ ,  $P_H \parallel h'$ ), u holda masala echimi to'g'ri ekanligi o'z tasdig'ini topadi. Aks holda echim noto'g'ri bo'ladi.

2-a) masalani bajarish uchun variantlar 2-jadvaldan olinadi.



### 3-rasm

**2-b) masala.**  $S$  nuqtadan  $ABD$  uchburchak tekisligigacha bo'lgan eng qisqa masofa aniqlansin (4-rasm).

**Masala echimi.** Dastlab,  $ABD$  uchburchak tekisligining berilgan uchlarini  $A(105, 25, 54)$ ,  $B(66, 12, 18)$ ,  $D(44, 52, 37)$  koordinatalari bo'yicha  $\Delta A'B'D'$  gorizontal va  $\Delta A''B''D''$  frontal proyeksiyalari chizib olinadi. Xuddi shuningdek,  $S$  nuqtaning  $S(17, 0, 59)$  koordinatasi bo'yicha uning  $S'$  gorizontal va  $S''$  frontal proyeksiyalari ham belgilab olinadi. Ushbu namunada  $S$  nuqtaning  $Oy$  o'qi bo'yicha koordinatasi 0ga teng bo'lganligi uchun u  $V$  frontal proyeksiyalar tekisligida joylashgan.


Endi  $S(S', S'')$  nuqtadan  $\Delta ABD(\Delta A'B'D', \Delta A''B''D'')$  tekisligiga perpendikular to'g'ri chiziq tushiriladi. Buning uchun tekislikning bosh chiziqlari  $h(h', h'')$  gorizontali va  $f(f', f'')$  frontali o'tkaziladi.  $S'$  dan  $h'$  ga,  $S''$  dan  $f''$  ga perpendikular  $t(t', t'')$  to'g'ri chiziq o'tkaziladi.

Keyin  $t(t', t'')$  to'g'ri chiziqnini  $\Delta ABD(\Delta A'B'D', \Delta A''B''D'')$  tekisligi bilan kesishgan nuqtasi aniqlanadi. Buning uchun qoidaga binoan  $t(t', t'')$  to'g'ri chiziq orqali gorizontal proyeksiyalovchi  $T(T_H, T_V)$  tekislik o'kaziladi va uni  $\Delta ABD(\Delta A'B'D', \Delta A''B''D'')$  tekisligi bilan kesishgan  $34(3'4', 3''4'')$  chizig'i aniqlanadi. Aniqlangan  $34(3'4', 3''4'')$  chiziq  $t(t', t'')$  to'g'ri chiziq bilan mos ravishda kesishib,  $K(K', K'')$  nuqtani beradi.  $SK(S'K', S''K'')$  kesma izlangan eng qisqa masofa hisoblanadi.

Ish so'nggida  $SK(S'K', S''K'')$  kesma, ya'ni qisqa masofaning haqiqiy uzunligi to'g'ri burchakli uchburchak usulida aniqlanadi. Buning uchun  $S''K''$  ga

perpendikular chiziq chiqarib, unga  $SK$  kesmaning frontal proyeksiyalar tekisligidan uzoqliklarining algebraik ayrimasi  $\Delta y (\Delta y = K_y S_y)$  masofa o'lchab qo'yiladi va  $S_0$  nuqta belgilanadi.  $S_0$  nuqta  $K''$  bilan tutashtiriladi va qisqa masofaning haqiqiy uzunligi  $S_0 K''$  ga ega bo'linadi va nihoyat chizma taxt qilinadi (4-rasm).

2-b) masalani bajarish uchun ham variantlar 4-jadvaldan olinadi.



*S nuqtadan  $\triangle ABD$  tekislikkacha bo'lgan qisqa masofani aniqlash*

Nº

Chizmачиллик va uni  
o'qitish metodikasi  
kafedrasi

1:1  
guruhi

	x	y	z
A	105	25	54
B	66	12	18
D	44	52	37
S	17	0	59

4-rasm

**4 jadval**

Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar		
		X	Y	Z			X	Y	Z			X	Y	Z
1	A	30	65	10	11	A	60	35	20	21	A	35	80	10
	B	50	10	50		B	15	5	20		B	35	20	60
	D	80	35	15		D	60	5	40		D	75	5	35
	S	70	75	55		S	20	25	55		S	65	50	60
2	A	30	65	10	12	A	60	25	10	22	A	45	70	5
	B	60	5	35		B	15	60	10		B	95	25	5
	D	80	30	10		D	45	0	45		D	40	5	40
	S	70	65	40		S	70	60	45		S	80	60	45
3	A	30	55	10	13	A	85	60	10	23	A	15	15	10
	B	50	10	65		B	40	60	45		B	50	15	75
	D	80	20	20		D	60	5	45		D	70	75	40
	S	75	65	55		S	60	60	55		S	20	55	55
4	A	20	30	5	14	A	80	10	25	24	A	25	50	10
	B	60	55	5		B	45	20	55		B	105	20	10
	D	75	10	55		D	25	65	15		D	65	5	65
	S	35	60	55		S	75	55	35		S	75	75	75
5	A	25	60	10	15	A	75	40	10	25	A	30	20	15
	B	75	25	10		B	35	10	10		B	80	65	15
	D	65	0	70		D	20	75	70		D	95	45	60
	S	35	15	0		S	65	80	50		S	45	65	70
6	A	10	75	15	16	A	95	5	25	26	A	40	40	15
	B	85	20	15		B	20	5	50		B	80	40	40
	D	30	20	75		D	50	45	5		D	30	15	25
	S	75	70	70		S	65	55	60		S	35	15	50
7	A	15	10	75	17	A	80	25	5	27	A	85	15	40
	B	50	50	10		B	50	5	35		B	90	40	30
	D	90	10	10		D	20	75	5		D	95	60	15
	S	75	50	65		S	80	75	40		S	100	80	55
8	A	15	5	10	18	A	80	45	15	28	A	90	10	35
	B	70	5	60		B	20	45	30		B	30	70	35
	D	80	45	10		D	55	10	60		D	10	35	5
	S	35	50	55		S	70	70	60		S	80	80	50
9	A	25	60	40	19	A	75	70	40	29	A	50	60	10
	B	35	25	65		B	45	10	60		B	15	60	35
	D	90	20	10		D	25	70	5		D	30	15	50
	S	75	75	65		S	70	45	75		S	80	60	45
10	A	85	15	25	20	A	70	10	35	30	A	75	30	30
	B	30	15	55		B	10	20	50		B	25	10	30
	D	65	35	10		D	50	55	0		D	60	55	10
	S	75	45	55		S	55	55	55		S	45	55	50

**2-c) masala.** *ABD uchburchak tekisligidan 30 mm uzoqlikda unga parallel tekislik o'tkazilsin (5-rasm).*

**Masala echimi.** ABD uchburchak tekisligi uchlarining berilgan  $A(107, 39, 65)$ ,  $B(42, 12, 0)$ ,  $D(14, 59, 26)$  koordinatalari bo'yicha uning  $\Delta A'B'D'$  gorizontal va  $\Delta A''B''D''$  frontal proyeksiyalari chizib olinadi. Berilgan  $\Delta ABD$  tekislikning  $h(h', h'')$  va  $f(f', f'')$  bosh chiziqlari o'tkaziladi. ABD uchburchak tekisligining biror nuqtasidan, masalan,  $A(A', A'')$  uchidan unga perpendikular  $t(t', t'')$  to'g'ri chiziq chiqariladi, ya'ni  $t \perp h$  ( $t' \perp h'$ ) va  $t \perp f$  ( $t'' \perp f''$ ).

$t(t', t'')$  to'g'ri chiziqning istalgan joyida  $N(N', N'')$  nuqta belgilanadi va  $AN(A'N', A''N'')$  kesma hosil bo'ladi. So'ngra  $AN(A'N', A''N'')$  kesmaning haqiqiy uzunligi  $A''N_0$  to'g'ri burchakli uchburchak usulida aniqlanadi.


$\Delta ABD$  tekislikning  $A(A'')$  uchidan  $A''N_0$  kesmaga 30 mm masofa o'lchab qo'yiladi va unda  $K_0$  nuqta aniqlanadi. Aniqlangan  $K_0$  nuqtadan  $N''N_0$  katetga parallel chiziq o'tkazib,  $t''(N''A'')$  da  $K''$  nuqta belgilanadi.  $K$  nuqtaning gorizontal proyeksiyasi  $K'$  bog'lovchi chiziq orqali  $t'(N'A')$ da aniqlanadi. Demak,  $\Delta ABD$  tekislikdan 30 mm uzoqlikda joylashgan  $K(K', K'')$  nuqtaning proyeksiyalariga ega bo'lindi .

Endi  $K(K', K'')$  nuqtadan ABD ( $A'B'D'$ ,  $A''B''D''$ ) uchburchak tekisligiga parallel tekislik o'tkaziladi. Buning uchun  $K'$  nuqtadan  $\Delta A'B'D'$  ning  $A'B'$  va  $A'D'$  tomonlariga  $n'$  va  $m'$ , xuddi shuningdek,  $K''$  dan esa  $\Delta A''B''D''$  ning  $A''B''$  va  $A''D''$  tomonlariga mos ravishda parallel qilib  $n''$  va  $m''$  to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. O'zaro  $K(K', K'')$  nuqtada kesishuvchi  $n(n', n'')$  va  $m(m', m'')$  to'g'ri chiziqlar  $Q(Q', Q'')$  tekislikni hosil qiladi va bu tekislik  $\Delta ABD$  ( $\Delta A'B'D'$ ,  $\Delta A''B''D''$ ) tekisligiga parallel bo'ladi ( $Q \parallel \Delta ABD$ ).

Agar  $Q(Q', Q'')$  tekislikni gorizontal  $Q_H$ , va frontal  $Q_V$  izlari orqali o'tkazish talab etilsa, u holda  $K(K', K'')$  nuqtadan  $\Delta ABD$  ( $\Delta A'B'D'$ ,  $\Delta A''B''D''$ ) tekislikning bosh chiziqlari  $h(h', h'')$  va  $f(f', f'')$ ga parallel to'g'ri chiziqlar ( $Q$  tekislikning mahsus chiziqlari) o'tkaziladi. O'tkazilgan to'g'ri chiziqlarning gorizontal va frontal izlari aniqlanadi hamda bu nuqtalardan  $\Delta ABD$  tekislikning bosh chiziqlariga parallel qilib,  $Q$  tekislikning gorizontal  $Q_H$ , va frontal  $Q_V$  izlari o'tkaziladi (bu 7-rasmda ko'rsatilmagan).

Chiziq turlariga rioya qilgan holda chizma taxt qilinadi.

2-c) masalani bajarish uchun ham variantlar 4-jadvaldan olinadi.



5-rasm

### **3-topshiriq. Epyurni qayta tuzish usullarida pozitsion va metrik masalalar echish**

**3-a) masala.** Parallel ko‘chirish usulida  $C$  nuqtadan  $ABD$  uchburchak tekisligigacha bo‘lgan eng qisqa masofa aniqlansin (6-rasm).

**Masala echimi.** Berilgan  $A(217, 15, 34)$ ,  $B(183, 81, 60)$ ,  $D(140, 38, 0)$   $C(122, 33, 48)$  nuqtalarning koordinatalari orqali  $\Delta ABD$  ( $\Delta A'B'D'$ ,  $\Delta A''B''D''$ ) tekislik va  $C(C', C'')$  nuqtaning proyeksiyalari yasaladi.  $\Delta ABD$  tekislikning bosh chizig‘i  $h(h', h'')$  o‘tkaziladi.

$\Delta ABD$  tekislik frontal proyeksiyalovchi vaziyatga keltiriladi. Buning uchun tekislik uchlari –  $A$ ,  $B$ ,  $D$  nuqtalar  $H_1$ ,  $H_2$ ,  $H_3$  harakat tekisliklarida ixtiyoriy trayektoriyada harakatlantirilib (berilgan tekislik frontal proyeksiyalovchi vaziyatga kelguncha) parallel ko‘chiriladi. Endi  $Ox$  o‘q davom ettiriladi va  $H$  tekislikda (chizma qog‘ozining bo‘sh joyida) ixtiyoriy nuqta tanlanadi hamda u  $A'_1$  deb nomlanadi.  $A'_1$  nuqta – fazodagi  $A$  nuqtaning ixtiyoriy trayektoriyada harakatlantirilib, parallel ko‘chirilgan yangi gorizontal proyeksiyasidir.

$A'_1$  nuqtadan  $Ox$  o‘qqa perpendikular qilib  $\Delta ABD$  tekislik gorizontalining  $h'$  proyeksiyasi chiziladi.  $h'$  chiziqa  $A'_1$  nuqtadan boshlab  $A'_1$  masofa o‘lchab qo‘yiladi va  $I'_1$  nuqta belgilanadi.  $A'_1$  dan  $R_1=A'_1B'$ ,  $I'_1$  nuqtadan  $R_2=I'_1B'$  radiusda aylana yoylari chiziladi. Bu yoylar o‘zaro kesishib,  $B'_1$  nuqtani beradi.  $D$  nuqtaning  $D'_1$  proyeksiyasi ham xuddi  $B'_1$  kabi aniqlanadi.  $A'_1$ ,  $B'_1$  va  $D'_1$  nuqtalarni o‘zaro tutashtirib,  $\Delta ABD$  tekislikning tekis-parallel ko‘chirilgan yangi  $\Delta A'_1B'_1D'_1$  gorizontal proyeksiyasi yasaladi.

$C'_1$  ni aniqlash uchun  $A'_1$  dan  $A'_1C'$ ,  $I'_1$  (yoki  $D'_1$ ) dan  $I'_1C'$  (yoki  $D'_1C'$ ) radiusda yoylar chiziladi. Bu yoylar o‘zaro kesishib,  $C'_1$  ni aniqlaydi.


$A'_1$ ,  $B'_1$ ,  $D'_1$ ,  $C'_1$  nuqtalardan yuqoriga bog‘lovchi chiziqlar chiqariladi. Bu chiziqlar harakat tekisliklarining  $H_{1V}$ ,  $H_{2V}$ ,  $H_{3V}$  frontal izlari bilan mos ravishda kesishib,  $A''_1$ ,  $B''_1$ ,  $D''_1$ ,  $C''_1$  nuqtalarni beradi.  $A''_1$ ,  $B''_1$  va  $D''_1$  nuqtalar o‘zaro tutashtirilsa,  $\Delta ABD$  tekislikning yangi  $\Delta A''_1B''_1D''_1$  frontal proyeksiyasi hosil bo‘ladi.  $\Delta A''_1B''_1D''_1$  tekislik bir to‘g‘ri chiziq - ya’ni, frontal proyeksiyalovchi bo‘lib qoladi.

Endi  $C$  nuqtadan  $\Delta ABD$  tekislikkacha bo‘lgan qisqa masofa aniqlanadi. Buning uchun  $C''_1$  nuqtadan  $\Delta A''_1B''_1D''_1$  tekislikka perpendikular to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi va u bilan kesishgan  $K(K''_1)$  nuqtasi aniqlanadi ( $C''_1K''_1 \perp \Delta A''_1B''_1D''_1$ ).  $C''_1K''_1$  kesma izlanayotgan qisqa masofaning haqiqiy uzunligi bo‘ladi (qizil rangda).  $K''_1$  nuqtadan  $H$  ga tushirilgan bog‘lovchi chiziq  $C'_1$  dan  $Ox$  ga parallel qilib o‘tkazilgan chiziq bilan kesishib  $K'_1$  nuqtani aniqlaydi.  $C'_1K'_1$  kesma (yashil rangda)  $CK$  qisqa masofaning parallel ko‘chirilgan vaziyatdagi gorizontal proyeksiyasidir.

Aniqlangan  $CK(C'_1K'_1, C''_1K''_1)$  qisqa masofa masalaning dastlabki ortogonal proyeksiyasiga olib o‘tiladi. Buning uchun  $C'$  nuqtadan  $h'$  ga perpendikular to‘g‘ri chiziq tushiriladi va unga  $C'_1K'_1$  masofa o‘lchab qo‘yiladi ( $R_2=C'_1K'_1$ ) hamda  $K'$  nuqta topiladi.  $K'$  nuqtadan vertikal,  $K''_1$  dan gorizontal holatda chiqarilgan bog‘lovchi chiziqlar o‘zaro kesishib,  $K''$  nuqtani aniqlaydi.  $C'K'$  kesma  $CK$  qisqa masofaning gorizontal,  $C''K''$  esa frontal proyeksiyalari bo‘ladi (yashil rangda).

Chizma taxt qilinadi, ya’ni chizma qog‘ozi hoshiyasi, asosiy yozuv o‘rnini chiziladi va u belgilangan tartibda to‘ldiriladi (6-rasm).

3-a) masalani bajarish uchun variantlar 5-jadvaldan olinadi.



*C nuqtadan  $\triangle ABD$  tekislikkacha bo'lgan qisqa masofani parallel ko'chirish usulida aniqlash*

Chizdi	F.I.O	imzo	sana	Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi	Nº
Tekshirdi	F.I.O	imzo	sana	kafedrasi	1:1
Q-qildi	F.I.O	imzo	sana	guruh	

x	y	z
A	217	15
B	183	81
D	140	38
C	122	33
	34	60
	48	48

6-rasm

**5 jadval**

Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar		
		X	Y	Z			X	Y	Z			X	Y	Z
1	A	25	60	40	11	A	15	5	10	21	A	15	15	10
	B	35	25	65		B	70	5	60		B	50	15	75
	D	90	20	10		D	80	45	10		D	70	75	40
	C	75	75	65		C	35	50	55		C	20	55	55
2	A	75	70	40	12	A	85	15	40	22	A	20	30	5
	B	45	10	60		B	90	40	30		B	60	55	5
	D	25	70	5		D	95	60	15		D	75	10	55
	C	70	45	75		C	100	80	55		C	35	60	55
3	A	85	15	25	13	A	80	25	5	23	A	85	60	10
	B	30	15	55		B	50	5	35		B	40	60	45
	D	65	35	10		D	20	75	5		D	60	5	45
	C	75	45	55		C	80	75	40		C	60	60	55
4	A	70	10	35	14	A	15	10	75	24	A	30	55	10
	B	10	20	50		B	50	50	10		B	50	10	65
	D	50	55	0		D	90	10	10		D	80	20	20
	C	55	55	55		C	75	50	65		C	75	65	55
5	A	75	30	30	15	A	40	40	15	25	A	45	70	5
	B	25	10	30		B	80	40	40		B	95	25	5
	D	60	55	10		D	30	15	25		D	40	5	40
	C	45	55	50		C	35	15	50		C	80	60	45
6	A	50	60	10	16	A	10	75	15	26	A	60	25	10
	B	15	60	35		B	85	20	15		B	15	60	10
	D	30	15	50		D	30	20	75		D	45	0	45
	C	80	60	45		C	75	70	70		C	70	60	45
7	A	90	10	35	17	A	30	20	15	27	A	30	65	10
	B	30	70	35		B	80	65	15		B	60	5	35
	D	10	35	5		D	95	45	60		D	80	30	10
	C	80	80	50		C	45	65	70		C	70	65	40
8	A	80	45	15	18	A	25	60	10	28	A	35	80	10
	B	20	45	30		B	75	25	10		B	35	20	60
	D	55	10	60		D	65	0	70		D	75	5	35
	C	70	70	60		C	35	15	0		C	65	50	60
9	A	95	5	25	19	A	25	50	10	29	A	60	35	20
	B	20	5	50		B	105	20	10		B	15	5	20
	D	50	45	5		D	65	5	65		D	60	5	40
	C	65	55	60		C	75	75	75		C	20	25	55
10	A	75	20	10	20	A	80	10	25	30	A	30	65	10
	B	35	20	10		B	45	20	55		B	50	10	50
	D	20	75	10		D	25	65	15		D	80	35	15
	C	65	55	50		C	75	55	35		C	70	75	55

**3-b) masala.** Aylantirish usulida  $ABD$  uchburchak tekisligi yuzasining haqiqiy kattaligi aniqlansin (7-rasm).

**Masala echimi.** Berilgan  $A(109, 12, 37)$ ,  $B(73, 62, 61)$ ,  $D(20, 37, 12)$  nuqtalarning koordinatalari orqali  $\Delta ABD$  tekisligining gorizontal  $\Delta A'B'D'$  va frontal  $\Delta A''B''D''$  proyeksiyalari yasaladi.  $\Delta ABD$  tekislikning  $f(f', f'')$  frontal o'tkaziladi (tekislikning  $h$  gorizontalidan ham foydalanish mumkin). Ushbu namuna chizmada aylantirish o'qi sifatida  $\Delta ABD$  tekisligining  $f$  frontal olindi.


$\Delta ABD$  tekislikning  $B(B'')$  uchidan aylatirish o'qiga perpendikular qilib  $T_1(T_{IV})$  harakat tekisligi o'tkaziladi:  $T_1 \perp f(T_{IV} \perp f')$ .  $T_{IV}$  va  $f''$  chiziqlar  $O_1''$  nuqtada kesihсади.  $B(B'')$  nuqtani  $f(f')$  aylantirish o'qi atrofida aylantirish uchun  $R_1$  aylantirish radiusining haqiqiy kattaligi  $B_0O_1''$  masofa to'g'ri burchakli uchburchak usulida aniqlanadi.  $O_1''$  markazdan  $R_1=B_0O_1''$  radiusda aylana yoyi chizilib,  $B(B'')$  nuqtaning yangi  $B''_1$  frontal proyeksiyasi  $T(T_{IV})$  harakat tekisligida aniqlanadi.

$\Delta ABD$  tekisligining  $A(A'')$  uchidan aylatirish o'qiga perpendikular qilib  $T_2(T_{2V})$  harakat tekisligi o'tkaziladi:  $T_2 \perp f(T_{2V} \perp f'')$ .  $T_{2V}$  va  $f''$  chiziqlar  $O_2''$  nuqtada kesihсади.  $A(A'')$  nuqtaning yangi  $A''_1$  frontal proyeksiyasi  $R_2$  aylantirish radiusidan foydalanib, xuddi  $B''_1$  nuqtaniki kabi aniqlanadi.

V frontal proyeksiyalar tekisligida aniqlangan yangi  $A''_1$  va  $B''_1$  hamda  $D''$  nuqtalar o'zaro tutashtirilib,  $\Delta ABD$  tekislikning  $\Delta A''_1B''_1D''$  proyeksiyasi hosil qilinadi.  $\Delta A''_1B''_1D''$  – fazodagi  $ABD$  uchburchak tekisligi yuzasining haqiqiy kattaligi bo'ladi. Ushbu tekislikning gorizontal  $\Delta A'B'D'$  proyeksiyasi bog'lovchi chiziqlar orqali aniqlanadi va u tekislik frontalni (aylantirish o'qi)ning gorizontal  $f'$  proyeksiyasi bilan ustma-ust tushadi ( $\Delta A'B'D' \equiv f'$ ). Ya'ni fazodagi  $\Delta ABD$  tekislik frontal holatga keltirildi.

Chizma taxt qilinadi, ya'ni chizma qog'ozni hoshiyasi, asosiy yozuv o'rni chiziladi va u belgilangan tartibda to'ldiriladi (7-rasm).

3-b) masalani bajarish uchun ham variantlar 5-jadvaldan olinadi.



$\Delta ABC$  tekisligi yuzasining haqiqiy kattaligini  
aylantrish usulida aniqlash

Chizdi	F.I.O	imza	sana	Chizmachiлик va uni o'qitish metodikasi	№
Tekshirdi	F.I.O	imza	sana		1:1
Q-qildi	F.I.O	imza	sana		guruhi

	x	y	z
A	109	12	37
B	73	62	61
C	20	37	12

7-rasm

**3-c) masala.** Proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usulida ABD va ABC uchburchak tekisliklari orasidagi ikki yoqli burchakning haqiqiy kattaligi aniqlansin (8-rasm).

**Masala echimi.** Berilgan A(90, 42, 10), B(64, 11, 49), D(14, 48, 49), C(30, 40, 0) koordinatalari bo'yicha  $\Delta ABD$  va  $\Delta ABC$  larning gorizontal va frontal proyeksiyalari H-V sistemada (ko'k rangda) chizib olinadi.  $AB(A'B', A''B'')$  kesma ikkala uchburchak tekisliklari uchun umumiy tomon hisoblanadi.  $\Delta ABC$  tekislikning gorizontal proyeksiyasida  $A'C'$  va  $B'C'$  tomonlari to'lig'icha, frontal proyeksiyasida esa  $B''C''$  tomonining bir qismi ko'rinnmaydi. Buni aniqlash uchun  $AD(A''D'')$  va  $BC(B''C'')$  kesmalarda yotgan o'zaro raqobatlashuvchi  $1(1')$  va  $2(2'')$  nuqtalarning  $1'$ ,  $2''$  gorizontal proyeksiyalari topiladi. Old tomondan qaralganda  $1$  nuqta  $2$  nuqtaga nisbatan kuzatuvchiga yaqin turganligi ma'lum bo'ladi.  $1 \in AD$  sababli  $A''D''$  ko'rinarli bo'ladi va  $B''C''$  kesmaning bir qismi esa ko'rinnmas bo'lib qoladi.

$\Delta ABD$  va  $\Delta ABC$  tekisliklar uchun umumiy tomon bo'lgan  $AB(A'B', A''B'')$  kesmaning haqiqiy uzunligi aniqlanadi. Buning uchun, masalan,  $AB(A''B'')$  kesmaga parallel qilib yangi  $V_1$  frontal proyeksiyalar tekisligi o'tkaziladi. Bu erda  $A''B'' \parallel O_{1X_1}$  tarzida absissa o'qi o'tkazilib, V-H<sub>1</sub> sistema hosil qilinadi. Tekisliklarning  $A'', B'', C'', D''$  uchlaridan  $O_{1X_1}$  o'qqa perpendikular bog'lovchi chiziqlar o'tkaziladi. Bu chiziqlar  $O_{1X_1}$  o'q bilan kesishib  $A_{X_1}, B_{X_1}, C_{X_1}, D_{X_1}$  nuqtalarni aniqlaydi (chizmada faqat  $D_{X_1}$  nuqta ko'rsatilgan). Ushbu nuqtalardan bog'lovchi chiziqlarga mos ravishda  $A'A_x, B'B_x, C'C_x, D'D_x$  masofalar o'lchab qo'yiladi (chizmada faqat  $D'D_x$  masofa ko'rsatilgan). Natijada  $\Delta ABD$  va  $\Delta ABC$  tekisliklarning yangi  $H_1$  gorizontal proyeksiyalar tekisligidagi  $A'_1B'_1D'_1$  va  $A'_1B'_1C'_1$  gorizontal proyeksiyalari hosil bo'ladi.  $A'_1B'_1$  kesma fazodagi  $AB$  to'g'ri chiziq kesmasining haqiqiy uzunligi bo'ladi.


Endi  $AB$  kesma frontal proyeksiyalovchi vaziyatga keltiriladi. Buning uchun  $A'_1B'_1$  kesma davomiga perpendikular qilib  $O_{2X_2}$  o'q o'tkaziladi va  $H_1-V_1$  sistema hosil qilinadi.  $A'_1, B'_1, C'_1, D'_1$  nuqtalardan  $O_{2X_2}$  o'qqa perpendikular qilib bog'lovchi chiziqlar o'tkaziladi. Bog'lovchi chiziqlar  $O_{2X_2}$  o'q bilan kesishib  $A_{X_2}, B_{X_2}, C_{X_2}, D_{X_2}$  nuqtalarni aniqlaydi.

Bu nuqtalardan o'tkazilgan bog'lovchi chiziqlarga mos ravishda  $A''A_{X_1}, B''B_{X_1}, C''C_{X_1}, D''D_{X_1}$  masofalar o'lchab qo'yiladi. Natijada  $A, B, C, D$  nuqtalarning yangi  $V_1$  proyeksiyalar tekisligidagi  $A''_1, B''_1, C''_1, D''_1$  proyeksiyalari hosil bo'ladi.  $A''A_{X_1}$  va  $B''B_{X_1}$  masofalar o'zaro teng bo'lganligi ( $A''A_{X_1} = B''B_{X_1}$ ), ya'ni  $A'_1B'_1$  kesma  $V_1$  ga perpendikularligi ( $A'_1B'_1 \perp V_1$ ) sababli  $A''_1$  va  $B''_1$  nuqtalar o'zaro ustma-ust tushadi ( $A''_1 \equiv B''_1$ ). Ya'ni  $A''_1B''_1$  kesma frontal proyeksiyalovchi vaziyatda bo'ladi.

$C''_1$  va  $D''_1$  nuqtalarni  $A''_1 \equiv B''_1$  nuqta bilan tutashtirib, izlanayotgan ikki yoqli  $\varphi$ -burchakning haqiqiy kattaligi aniqlanadi.

Chizma taxt qilinadi, ya'ni chizma qog'ozni hoshiyasi, asosiy yozuv o'rni chiziladi va u belgilangan tartibda to'ldiriladi (8-rasm).

3-c) masalani bajarish uchun ham variantlar 5-jadvaldan olinadi.



8-rasm

#### **4-topshiriq. Chizma geometriya fani bo‘yicha nazariy savollar**

##### **1- variant**

1. Chizma geometriya fani nimani o‘rganadi ?
2. Fazoni choraklarga bo‘lish deganda nimani tushunasiz ?
3. To‘g‘ri chiziqni tekislikka perpendikulyarligi qoidasini tushuntiring.

##### **2- variant**

1. Nima uchun umumiy vaziyatdagi egri chiziqning markaziy va parallel proyeksiyasi ham egri chiziq bo‘ladi ?
2. Birinchi va ikkinchi bissektor tekisliklari to‘g‘risida nimalarni bilasiz ?
3. Ortogonal proyeksiylarni qayta tuzish deganda nimani tushunasiz ?

##### **3- variant**

1. Ortogonal proyeksiyalashning ta’rifini misollar orqali keltirib o‘ting.
2. Chizmalarda ko‘rinishlilikni aniqlash va raqobatlashuvchi nuqta, chiziqlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltiring.
3. Proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usulining mohiyati nimadan iborat ?

##### **4- variant**

1. Chizma geometriyada qanday proyeksiyalash usullari mavjud ?
2. Fazoni oktantlarga bo‘lishdan hosil bo‘ladigan koordinata o‘qlari va ularning amaliy ahamiyatni tushuntirib bering.
3. Ikki tekislikning o‘zaro parallelligi va perpendikulyarligi qoidasini tushuntiring.

##### **5- variant**

1. Chizma geometriyadagi markaziy proyeksiyalash usulining qanday xossalari mavjud ?
2. Fazoni oktantlarga bo‘ling va uni tushuntirib bering.
3. Ikki tekislikning o‘zaro perpendikulyarligi qoidasini tushuntiring.

##### **6- variant**

1. Parallel proyeksiyalash usulining geometrik apparati va xossalari yoritib bering.
2. Xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqlar to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. Pozitsion va metrik masalalar deb qanday masalalarga aytildi?

##### **7- variant**

1. Markaziy proyeksiyalash usulining geometrik apparati va xossalari yoritib bering.
2. To‘g‘ri chiziqning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan egallagan vaziyatlarini chizmalar orqali tushuntirib bering.
3. Tekisliklarning o‘zaro parallelligi qoidasini yoritib bering

##### **8- variant**

1. Chizma geometriya fanining mazmuni va uning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ?
2. Ortogonal proyeksiyalash usullari va uning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ?
3. Tekislik va to‘g‘ri chiziqning izlari haqida ma’lumot bering.

##### **9- variant**

1. To‘g‘ri burchak va uning xususiyatlari nimalardan iborat ?

2. Gospar Monjning fanga qo'shgan hissasini yoritib bering.
3. Mustaqillikdan keyin O'zbekistonlik olimlarning chizma geometriya va chizmachilik fanlari rivojiga qo'shgan hissalari to'g'risida ma'lumot bering.

#### **10- variant**

1. Parallel proyeksiyalash usuli va uning xossalarni tushuntirib bering.
2. Tekislikning berilishi to'g'risida ma'lumot bering.
3. Ikki to'g'ri chiziq o'zaro qanday vaziyatlarda bo'ladi ?

#### **11- variant**

1. Proyeksiyalovchi tekisliklarning qanday xossalari mavjud ?
2. Nuqtaning proyeksiyasi deb nimaga aytamiz?
3. Ortogonal proyeksiyalash qanday hosil bo'ladi?

#### **12- variant**

1. Pozitsion masala deb qanday masalalarga aytildi ?
2. Markaziy va parallel proyeksiyalashning qanday umumiylar xossalari mavjud?
3. To'g'ri chiziqni tekislikka tegishliligi qoidasi mazmuni nimadan iborat ?

#### **13- variant**

1. Pozitsion va metrik masalalar deganda nimani tushunasiz ?
2. Tekislikning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan egallagan vaziyatlarini chizmalar orqali tushuntirib bering.
3. To'g'ri chiziqni tekislikka parallelligi qoidasi mazmuni nimadan iborat ?

#### **14- variant**

1. Xususiy va umumiylar vaziyatdagi nuqtalarning ortogonal proyeksiyalari qanday joylashadi?
2. To'g'ri chiziqni H, V, W proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan og'ish burchaklari qanday hosil qilinadi ?
3. Qachon to'g'ri chiziq tekislikka parallel bo'ladi ?

#### **15- variant**

1. Epyur deb nimaga aytildi ?
2. Nuqtaning koordinatalaridan biri va ikkisi nolga teng bo'lsa uning proyeksiyalari qanday hosil qilinadi ?
3. Tekis parallel ko'chirish usuli va uning amaliy ahamiyati nimadan iborat ?

#### **16- variant**

1. To'g'ri va teskari pozitsion, metrik masalalarning o'zaro farqlarini tushuntiring.
2. To'g'ri chiziq va tekisliklarning izlari deganda nimalarni tushunasiz ?
3. Proyeksiyalovchi tekisliklarning xossalarni aytib bering.

#### **17- variant**

1. Aylantirish usulining elementlari nimalardan iborat ?
2. Proyeksiyalovchi to'g'ri chiziqlarning ortogonal proyeksiyalari qanday tasvirlanadi ?
3. Proyeksiyalar tekisliklarini ikki marta almashtirish orqali qanday masalalarni yechish maqsadga muvofiq bo'ladi ?

#### **18- variant**

1. Proyeksiyalar tekisliklariga parallel to'g'ri chiziqlarning ortogonal proyeksiyalari qanday tasvirlanadi ?

2. Tekislikni H, V, W proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan og'ish burchaklari qanday hosil qilinadi ?

3. Proyeksiyalar tekisliklarini bir marta almashtirish orqali qanday masalalarni echish maqsadga muvofiq bo'ladi ?

### **19- variant**

1. Nima uchun parallel proyeksiyalash usuliga markaziy proyeksiyalashning xususiy holi sifatida qaraladi ?

2. To'g'ri chiziq kesmasini tahlil qilish deganda nimani tushunasiz ?

3. Tekislikning bosh chiziqlarini tushuntirib o'ting.

### **20- variant**

1. To'g'ri chiziqni tekislik bilan kesishgan nuqtasini aniqlash algoritmi qanday bo'ladi ?

2. Jipslashtirish (ustma-ust qo'yish) usulining mohiyatini tushuntirib bering.

3. Tekislikning izi deb nimaga aytiladi va uni misollarda ko'rsating.

### **21- variant**

1. Ikki tekislikni o'zaro kesishgan chizig'ini aniqlash algoritmi qanday bo'ladi ?

2. Ikki tekislikning perpendikularligi ta'rifini tushuntirib bering.

3. Tekis parallel ko'chirish usuli nima va unda qanday masalalarni echish mumkin ?

### **22- variant**

1. Parallel proyeksiyalash usulining qanday turlari mavjud ?

2. To'g'ri burchakning proyeksiyalanish xususiyatlarni yoritib bering.

3. Ikki tekislikning o'zaro kesishish chizig'i qanday aniqlanadi ?

### **23- variant**

1. Bissektron tekisligi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. Qanda to'g'ri chiziqlarning izlari uchta bo'lmaydi v anima uchun ?

3. Aylantirish usulida aylantirish o'qi proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan qanday vaziyatlarda bo'lishi mumkin ?

### **24- variant**

1. To'g'ri chiziqning ortogonal proyeksiyalarini haqida ma'lumot bering.

2. Tekislikning bosh chiziqlari deb qanday chiziqlarga aytiladi ?

3. Tekis parallel ko'chirish usulida harakat tekisliklari qanday vaziyatda bo'lishi lozim va nima uchun ?

### **25- variant**

1. Ortogonal proyeksiyalashning ta'rifini misollar orqali keltirib o'ting.

2. Birinchi va ikkinchi bissektron tekisliklari to'g'risida nimalarni bilasiz ?

3. To'g'ri chiziq kesmasini teng va berilgan nisbatlarda bo'lishni misollar yordamida ko'rsatib bering.

### **26- variant**

1. Tekislikning ortogonal proyeksiyalarini haqida ma'lumot bering.

2. Xususiy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar deb qanday chiziqlarga aytiladi ?

3. Proyeksiyalar tekisliklarini almashtirish usuli to'g'risida ma'lumot bering.

### **27- variant**

1. Ikki tekislikning kesishish chizig'i qanday aniqlanadi?

2. Umumiyy vaziyatdagi to'g'ri chiziqlar deb qanday chiziqlarga aytiladi ?

3. Jipslashtirish usuli nima va unda qanday masalalarni echish qulay hisoblanadi?

### **28- variant**

1. Nima uchun umumiy vaziyatdagi egri chiziqning markaziy va parallel proyeksiyasi ham egri chiziq bo‘ladi ?

2. Chizmalarda ko‘rinishlilikni aniqlash va raqobatlashuvchi nuqta, chiziqlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltiring.

3. Tekislikning eng katta og‘ma chiziqlari deganda nimani tushunasiz ?

### **29- variant**

1. Nima uchun proyeksiyalash markazidan yoki proyeksiyalash yo‘nalishiga parallel bo‘lgan tekislikning markaziy va parallel proyeksiyasi to‘g‘ri chiziq bo‘ladi?

2. Raqobatlashuvchi nuqta va chiziqlarning xususiyatlaridan foydalanib qanday masalalarni echishda foydalanish mumkin?

3. Tekislikning bosh va eng katta og‘ma chiziqlaridan foydalanib qanday grafik masalalar echishda mumkin?

### **30- variant**

1. Tekislik izi deb nimaga aytildi va u qanday aniqlanadi?

2. To‘g‘ri chiziq kesmasini tahlil qilish deb nimaga aytildi?

3. Ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzishning qanday usullari mavjud?

### **31- variant**

1. Ortogonal proyeksiylarni qayta tuzish deganda nimani tushunasiz ?

2. Fazoni oktalarga bo‘lishdan hosil bo‘ladigan koordinata o‘qlari va ularning amaliy ahamiyatni tushuntirib bering.

3. Xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziqlar to‘g‘risida ma’lumot bering.

### **32- variant**

1. Ortogonal proyeksiyalash usullari va uning amaliy ahamiyati nimalardan iborat ?

2. Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonlik olimlarning chizma geometriya va chizmachilik fanlari rivojiga qo‘sghan hissalari to‘g‘risida ma’lumot bering.

3. Tekislikning proyeksiyalar tekisliklariga nisbatan egallagan vaziyatlarini chizmalar orqali tushuntirib bering.

## **GLOSSARIY**

<b>№</b>	<b>O‘zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>	<b>Inglizcha</b>
<b>1</b>	Vatman	Ватман	Whatman paper
<b>2</b>	Vertikal	Вертикальный	Vertical
<b>3</b>	Gorizontal	Горизонтальный	Horizontal
<b>4</b>	Gotovalnya	Готовальня	Case of drawing instruments
<b>5</b>	Detal	Деталь	Detail
<b>6</b>	O‘lchash	Измерять	To measure
<b>7</b>	Tasvirlash	Изображать	To represent
<b>8</b>	Tasvir	Изображение	Image
<b>9</b>	Asbob	Инструмент	Tool, instrument
<b>10</b>	Qadoq, knopka	Кнопка	Button
<b>11</b>	Egri	Кривая	Curve

12	Lekalo	Лекало	Curve
13	Chizg‘ich	Линейка	Ruler
14	Chiziq	Линия	Line
15	Aylana	Окружность	Circle
16	Parallel	Параллельный	Parallel
17	Parallellik	Параллельность	Parallelism
18	Perpendikulyar	Перпендикуляр	Perpendicular
19	Buyum, narsa	Предмет	Subject
20	To‘g‘ri chiziq	Прямая линия	Straight line
21	Xoshiya, ramka	Рамка	Framework
22	Masofa, oraliq	Расстояние	Distance
23	O‘chirgich	Резинка (ластик)	Elastic eraser
24	Reysfeder	Рейсфедер	Drawing pen
25	Transportir	Транспортир	Protractor
26	Burchak	Угол	Angle
27	Burchaklik	Угольник	Set/square
28	Shakl	Форма	Form, shape
29	Sirkul	Циркуль	Compasses
30	Chizish	Чертить	To draw
31	Chizmachilik	Черчение	Drawing
32	Shrift	Шрифт	Printfont
33	Belgi	Знак	Sign
34	Bosh harf	Прописная буква	Capital letter
35	Yozma harf	Строчная буква	Small letter
36	Balandlik	Высота	Height
37	Qator	Строка	Line
38	Og‘ma	Наклон	Inclination
39	Qadam	Шаг	Step
40	To‘lqinsimon (chiziq)	Волнистая (линия)	Wavy (line)
41	Chiqarish (chizig‘i)	Выносные (линии)	Remote (lines)
42	Kontur	Контур	Contour
43	O‘q (chiziq)	Осевая (линия)	Axial (line)
44	Sirt	Поверхность	Surface
45	O‘lcham (chizig‘i)	Размерные (линии)	Dimensional (lines)
46	Qirqim	Разрез	Section
47	Kesim	Сечение	Section
48	Simmetriya	Симметрия	Symmetry
49	Iz	След	Trace
50	Shtrixlash (chiziq)	Штриховая (линия)	Shaped (line)
51	Gradus	Градус	Degree
52	Diametr	Диаметр	Diameter
53	Yoy	Дуга	Arch
54	kvadrat	Квадрат	Square
55	Metr	Метр	Meter
56	millimetrr	Миллиметр	Millimeter
57	Teshik	Отверстие	Aperture
58	radius	Радиус	radius

<b>59</b>	O'lcham chizig'i	Размерная линия	Dimensional line
<b>60</b>	Santimetr	Сантиметр	Centimeter
<b>61</b>	Ko'rsatkich, strelka	Стрелка	Arrow(Pointer)
<b>62</b>	Trafaret	Трафарет	Stencil
<b>63</b>	O'lcham soni	Число размерное	Dimensional Number
<b>64</b>	Kattalik	Величина	Quantity
<b>65</b>	Silindr	Цилиндр	Cylinder
<b>66</b>	Chiziqli	Линейные	Linear
<b>67</b>	Kattalashtirish	Увеличение	Increase
<b>68</b>	Kichraytirish	Уменьшение	Reduction
<b>69</b>	Teorema	Теорема	Theorem
<b>70</b>	Uchburchaklik	Треугольник	Triangle
<b>71</b>	Oltiburchaklik	Шестиугольник	Hexagon
<b>72</b>	Urinma	Касание	Contact
<b>73</b>	Oval	Овал	Oval
<b>74</b>	Tutashma	Сопряжение	Interface
<b>75</b>	Giperbola	Гипербола	Hyperbole
<b>76</b>	Direktrisa	Директриса	Directrix
<b>77</b>	Tish	Зуб	Tooth
<b>78</b>	Konsentrik	Концентрическая	Concentric
<b>79</b>	parabola	парабола	Parabola
<b>80</b>	Yasash	Построение	Construction
<b>81</b>	Spiral, o'rama	Спираль	Spiral
<b>82</b>	Fokus	Фокус	Focus
<b>83</b>	Ellips	Эллипс	Ellipse

### Asosiy adabiyotlar

<b>№</b>	<b>Muallif</b>	<b>Adabiyot nomi</b>	<b>Adabiyot turi</b>	<b>Nashr yili</b>
1	Sh.K.Murodov va boshqalar	Chizma geometriya	Darslik	“Iqtisod-moliya”, 2006 yil
2	R.Ismatullayev	Chizma geometriya	O‘quv qo‘llanma	TDPU rizografi, 2003 yil
3	B.B.Qulnazarov	Chizma geometriya	O‘quv qo‘llanma	“O‘zbekiston”, 2006 yil
4.	A.Valiyev	Perspektiva	O‘quv qo‘llanma	“Voris-nashriyot”, 2009 yil
5.	I.Raxmonov	Perspektiva	O‘quv qo‘llanma	“O‘qituvchi”, 1993 yil

### Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.

2.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet.

3.Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.- Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.

4.Mirziyoyev Sh.M. “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi shart”. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. - Toshkent.: 2017. -104 b.

5.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi. – Toshkent.: 2017.

6. Xorunov R.X. Chizma geometriya kursi. –T.: “O‘qituvchi”, 4 nashri, 1997.

7. Ismatullaev R.Q. va Hoshimova X. Chizma geometriya. -T.: “TDPU rizografi”, 2005.

8. Akbarov A. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi. -T.:, 2004.

9. Valiyev A.N. Perspektiva. -T.: “Voris-nashriyot”, 2012.

10. Valiyev A.N. va boshqalar. Chizma geometriya. -T.: “TDPU rizografi”, 2012.

11. Valiyev A.N., va boshqalar. Chizma geometriya joriy nazorat vazifalarining metodik ishlanmasi. -T.: “BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmoxonasi”, 2015.

12. M.B.Shah, B.C.Rana. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India, 2007, 2009.

### Internet saytlari

1.<https://lib.cspl.uz/>

2. www. pedagog. uz